

## XANS KRISTIAN ANDERSENING MASHAQQATLI HAYOT YO'LI VA IJODI

**Tovboyeva Gavhar**

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi*

*Ilmiy rahbar: G.Raximova*

*O'z-Fin Pedagogika instituti dotsenti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqola ko'plab mashhur ertaklarning otasi bo'lmish Xans Kristian Andersenning qiyinchilik bilan o'tgan bolaligi va kitobxonlarni qiziqтира oladigan noodatiy hayoti, ertaklarning yozilishida yashash tarzining ahamiyati, bugungi kundagi har bir yozuvchi uchun o'rnak bo'la oladigan ijod yo'li tahlil qilingan. Bundan tashqari maqolada Andersenning olgan mukofotlari, erishgan yutuqlari va haykallari haqida ham ma'lumotlar mavjud.*

**Kalit so'zlar:** *saboq, matonat, kambag'al, sayohat, mashhur, ertak, haykal*

Hayot saboqlari insonni toblaydi. Bu saboqlar ba'zan yaxshi, ba'zan yomon iz qoldiradi umr kitobimizda. Saboqlarga dosh berib matonat bilan yengib o'tish esa har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Uddasidan chiqqanlargina uzoq toblangan po'lat singari mustahkam bo'ladi va dunyoda o'z nomini abadiyga muhrlab qoldiradi. Mana shunday tablanib, o'z ismini nafaqat dunyoga, balki har bir yosh-u qarining ko'ngliga yozib ketgan insonlardan biri Xans Kristina Andersendir.

Xans Kristian Andersen Ostendda (Daniya) 1805 yil 2-aprelda dunyoga kelgan. Uning oilasi juda kambag'al bo'lganligi sababli ular juda ko'p qiynalishadi. Bo'lajak yozuvchining otasi poyabzalchi bo'lgan. Uning Xans Kristianning hayotiga ta'siri hal qiluvchi edi, chunki u adabiyotga katta qiziqish bilan qaraydigan madaniyatli odam edi. Imkoniyati bo'lganida, u o'g'liga hayoliy voqealarni aytib berish bilan birga, uni teatrga olib borardi. Xuddi shu tarzda, u Andersenga o'z uyida o'z qo'g'irchoq teatrini qurishda yordam berdi. Boshqa tomondan, Andersenning onasi kir yuvuvchi bo'lib ishlagan. Shuning uchun Xans kambag'allar maktabiga o'qishga kiradi. Oradan uncha ko'p vaqt o'tmay, ularning oilasi Kopengagenga ko'chadi. Bolaning yashash sharoiti va o'qishi bu yerda ancha-muncha yaxshi bo'ladi. Bo'lajak yozuvchi 1823-yilda Slagels maktabiga o'qishga kiradi, undan keyin Xelsingyorda ta'lim oladi. 1828- yilda esa Kopengagen universitetiga o'qishga kiradi.

Andersen juda ko'p mamlakatlarni kezib chiqadi. Uning hayotiy shiorlaridan biri "Sayohat qilish - yashashdir" edi. Muallif chet elga 29 ta sayohat uyushtirgan va Daniyadan tashqarida 9 yildan ortiq yashagan. Fransiya, Shveysariya, Italiya, Gretsiya va Ispaniya singari joylarga sayohat qiladi. Andersenning ijodi 20- yillarning boshlaridan boshlanadi. U dastlab lirik she'rlar, roman, drama, yo'l ocherklari, biografik etudlar yaratadi. "Daniyalik Xolger", „Qor malikasi“, vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan „Daniya —mening vatanim“, ozodlik g'oyasi mujassamlangan „Soqchi“, „Shiron asiri“ va boshqa she'rlari poeziya janrida yaratgan eng sara asarlari jumlasiga kiradi. Andersen o'z romanlarida ("Improvizator", "T

bo'lgan yoki bo'lmaydi") zamonasi uchun juda muhim bo'lgan voqealarni qamrab olishga harakat qiladi. Uning ijodi ko'p qirrali va rang-barangdir. Ayniqsa, tarix va ertak asarlari yosh kitobxonlar uchun maroqlidir. „Ertaklar“ (1835 - 1855), „Yangi ertaklar“ (1843 - 1872) va boshqa kitoblari Andersenning nomini juda mashhur qildi va uni jahonga tanitdi. Andersen bu kitoblarni yaratishda xalq og'zaki ijodidan unumli foydalandi, ularning orzu-umidlarini qog'ozga tushirishga harakat qildi. Ertaklardagi xarakter va jonli nutqni yanada mukammallashtirishga erishdi. Shuning uchun Andersen yaratgan ertaklar sodda, kitobxon uchun tushunarli bo'lish bilan birga, o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ham ega. Andersen ertaklarida ko'pincha bosh qahramon shahzoda ham emas, malika ham emas, balki oddiy mehnatkash xalqdir. Ular o'zlarining samarali mehnati, aql-idroki, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga muvaffaq bo'ladilar. Uning „Qo'ng'iroqli girdob“, „Kumush tanga“, „Kolbasa sixidan sho'rva“, „Go'ng qo'ng'iz“ va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo'la oladi. Uni nogoh o'z domiga tortgan va juda erta ishlashga majbur etgan hayot turi qishloq va shahar hayotini birdek yashashga majbur qildi. Shunday qilib, Andersen boshqa yozuvchilar singari qishloq yoki shahar hayotini o'rganib asar yozishga majbur emas edi, negaki u bu hayotda o'zi yashardi. Balki shuning uchun ham uning asarlari hayotiy va ommabop bo'lgan.

Andersen Daniyadan tashqarida ham yozuvchi sifatida keng tan olingan. Uning asarlari hayotlik chog'idayoq ingliz, frantsuz va nemis tillariga tarjima qilingan edi. Andersen o'z ertaklarini o'qib berish uchun ko'p joylarga tez tez taklif qilingan. Talabalar uyushmasida, qirollar oilasida, tikuvchilar va yuqori burjuaziya a'zolarida uning ertaklaridan zavq olar edi. Ba'zida u 500 dan 1000 kishigacha bo'lgan xonalarni to'ldirgan tinglovchilarga ertak o'qib berar edi.

Andersen 1875 yil 4 avgustda Kopengagen yaqinidagi Rolighed uyida vafot etgan. Tiriklik chog'ida Qirol unga 1855 yil titulli davlat maslahatchisi unvonini berdi. Keyingi yili uning sharafiga uyushtirilgan katta bayram paytida Odenzening faxriy fuqarosi deb nomlandi. U olgan boshqa faxriy unvonlarga 1846 yilda Prussiya qiroli Frederik Uilyam tomonidan berilgan "Qizil burgut ritseri" va 1859 yilda Bavariya qiroli Maksimilian II tomonidan "Maksimiliya san'at va fan" ordeni berilgan. 1956 yilda Xans Kristian Andersen nomidagi bolalar adabiyoti uchun mukofot ta'sis etildi. Har ikki yilda bir marta beriladigan bu mukofot "Nobel" mukofotiga tenglashtiriladi. Uning tug'ilgan sanasi, 2-aprel, "Xalqaro bolalar kitobi kuni"ga aylandi. Andersenning ertaklari behisob teatlarda namoyish etilgan. Bundan tashqari, Daniya yozuvchisi sharafiga ko'plab haykallar o'rnatilgan. Eng mashhuri Kopengagenda joylashgan. Andersen haykallari o'rnatilgan boshqa shaharlar - Malaga, Nyu-York, Chikago yoki Bratislava. Bundan tashqari, 2006 yilda Shanxayda ularning hikoyalari asosida tematik park ochildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ziyo.uz.com
2. Ruiza, M., Fernández, T. va Tamaro, E. Xans Kristian Andersenning tarjimai holi. Biografiasyvidas.com saytidan olingan
3. Millet, Eva. Xans Kristian Andersenning o'lmasligi. Vanaguardia.com saytidan olingan
4. EcuRed. Xans Kristian Andersen. Ecured.cu saytidan olingan
5. Biography.com muharrirlari. Xans Kristian Andersenning tarjimai holi. Biography.com saytidan olindi
6. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU nashri. 2022. – 303 b.